

**ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА  
ИННОВАЦИЯЛАР**

**2-МАХСУС СОН**

---

**ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И  
ПСИХОЛОГИИ**

**СПЕЦИАЛЬНЫЙ ВЫПУСК-2**

---

**INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND  
PSYCHOLOGY**

**SPECIAL ISSUE-2**

**2020 ЙИЛ - "ИЛИМ-МАЪРИФАТ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ  
РИВОЖЛАНТИРИШ ЙИЛИ"**



**TOSHKENT-2020**

**ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР  
ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ  
INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY  
№SI-2 (2020) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9513-2020-SI-2>**

**Бош муҳаррир:  
Главный редактор:  
Chief Editor:**  
**Аскарлов Аббор Давлатмирзаевич**  
педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори

Педагогика йўналиши

**Бош муҳаррир:  
Главный редактор:  
Chief Editor:**  
**Мухамедова Дилбар Гафурджановна**  
психология фанлари доктори, профессор

Психология йўналиши

**Педагогика ва психологияда инновациялар журнал тахририй маслаҳат кенгаши  
Editorial Board of the Journal of Innovations in pedagogy and psychology  
Международный редакционный совет журнала Инновации в педагогике и психологии**

**Уразова Марина Батировна**  
Педагогика фанлари доктори

**Муслимов Нарзулла Алиханович**  
Педагогика фанлари доктори, профессор

**Джораев Мухамматрасул**  
Педагогика фанлари доктори, профессор

**Нурманов Абдиназар Ташбаевич**  
Педагогика фанлари доктори

**Халиков Аъзам Абдусаломович**  
Педагогика фанлари доктори

**Аюнова Мукаррам**  
Педагогика фанлари номзоди, профессор

**Ҳамидов Жамил Абдурасулович**  
Педагогика фанлари доктори

**Туракулов Олим Холбўтасевич**  
Педагогика фанлари доктори

**Шорена Дзамукашвили**  
Педагогика фанлари доктори

**Шорена Вахтангишвили**  
Педагогика фанлари доктори

**Саниява Малоҳат Латиповна**  
Психология фанлари бўйича фалсафа доктори

**Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов**

**Контакт редакций журналлов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000**

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000**



## МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

<b>58.Сидов У.Ш.</b> ВОПРОСЫ ОБ ИСПОЛЬЗОВАНИИ МУЛЬТМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ В ОБУЧЕНИИ ВТОРОМУ ЯЗЫКУ В ВУЗАХ.....	382
<b>59.Doniyev S.I., Joldasov I.S.</b> Ibrohimov Farhodjon Anvarjon o'g'li BOSHLANG'ICH TA'LIM RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (FIN BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMI MISOLIDA).....	387
<b>60.Абдуллаева Н.М.</b> ИНТЕГРАЦИЯЛАШГАН ДАРСЛАРНИНГ АНЪАНАВИЙ ФАНЛАРАРО АЛОҚАДОРЛИК АСОСИДАГИ ДАРСЛАРДАН ФАРҚИ.....	394
<b>61.Юсупов Ш.Б.</b> ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА "ОЛИЙ МАТЕМАТИКА" ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	402
<b>62.Mamadjanova N.A.</b> FARZANDLARIMIZNING TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA OТА-ONANING RO'LI.....	408
<b>63.Kadirova Sh.X.</b> INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI TARBIYALANUVCHILARIDA MILLIY G'URUR, VATANPARVARLIK HISSINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI.....	413
<b>64.Каримов Ф.Х., Ташпулатов Ф.А.</b> РЕСПУБЛИКАМИЗДАГИ ЮНОН-РИМ КУРАШИ БИЛАН ШУФУЛЛАНУВЧИ ЎСМИРЛАРНИ ҚАРШИ ҲУЖУМ УСУЛЛАРИГА ЎРГАТИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ.....	418
<b>65.Насырова З.М.</b> РЕГУЛИРОВАНИЕ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ВЗАИМОСВЯЗИ ДИАГНОСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ.....	428

**ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР  
ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ  
INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY**

**Doniyev Sardor Ixtiyor o'g'li**

Toshkent viloyat Chirchiq  
davlat pedagogika instituti

E-mail: s.doniev@cspi.uz

**Joldasov Ixtiyor Suyundikovich**

Toshkent viloyat Chirchiq  
davlat pedagogika instituti

"Tarix" kafedrası o'qituvchisi

i.joldasov@cspi.uz

**Ibrohimov Farhodjon Anvarjon o'g'li**

Toshkent viloyat Chirchiq  
davlat pedagogika instituti

"Ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi

f.ibrohimov@cspi.uz

**BOSHLANG'ICH TA'LIM RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (FIN  
BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMI MISOLIDA)**

*For citation: S.I. Doniyev., F.A. Ibrakhimov., I.S.Joldasov. Trends in the development of primary education (an example of the finnish system of primary education).Journal of innovations in pedagogy and psychology, 2020, special issue 2, pp. 387-393*

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9513-2020-SI-2-59>

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Yevropaning shimoliy qismida joylashgan, bugungi kunda katta ilmiy salohiyatga ega Finlyandiyaning boshlang'ich talimi va mazkur ta'limning o'ziga xos jihatlari tahlil etilgan. Shuningdek fin o'quvchilarining boshlang'ich ta'limni olganlaridan keyingi ta'limni davom ettirish muqobillari ham keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich ta'lim, maorif, maktab, ta'lim sifati, imtixon, kasb-hunar ta'limi, islohot, evolutsiya, tadqiqot, yutuq.



**Дониев Сардор Ихтиёр Оғлы**  
 Ташкентский областной Чирчикский  
 государственный педагогический институт  
 преподаватель кафедры "Истории"  
 s.doniev@cspi.uz

**Жолдасов Ихтиёр Суюндикович**  
 Ташкентский областной Чирчикский  
 государственный педагогический институт  
 Преподаватель кафедры "Истории"  
 i.joldasov@cspi.uz

**Ибрагимов Фарходжон Анваржон оғлы**  
 Чирчикский государственный педагогический  
 институт Ташкентской области преподаватель  
 кафедры "Общественных наук"  
 f.ibrohimov@cspi.uz

## **ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ (НА ПРИМЕРЕ ФИНСКОЙ СИСТЕМЫ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ)**

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье анализируется начальное образование в Финляндии, которая находится в северной части Европы и имеет сегодня большой научный потенциал, и особенности этого образования. Существуют также альтернативы для финских студентов для получения послешкольного образования.

**Ключевые слова:** начальное образование, образование, школа, качество образования, экзамен, профессиональное образование, реформа, эволюция, исследование, достижения.

**Doniyev Sardor Ikhtiyor oglu**  
 Tashkent regional Chirchik State Pedagogical Institute  
 Teacher of the Department of History  
 s.doniev@cspi.uz

**Ibrakhimov Farkhodjon Anvarjon oglu**  
 Tashkent regional Chirchik State Pedagogical Institute  
 Teacher at the Department of Social Sciences  
 f.ibrohimov@cspi.uz

**Joldasov Ikhtiyor Suyundikovich**  
 Tashkent regional Chirchik State Pedagogical Institute  
 Teacher of the Department of History  
 i.joldasov@cspi.uz

## **TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF PRIMARY EDUCATION (AN EXAMPLE OF THE FINNISH SYSTEM OF PRIMARY EDUCATION)**



## ANNOTATION

This article analyzes the primary education in Finland, which is located in the northern part of Europe and has great scientific potential today, and the specifics of this education. There are also alternatives for Finnish pupils to pursue post-primary education.

**Keywords:** Primary education, education, school, quality of education, exam, vocational education, reform, evolution, research, achievement.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan 2020-yil "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyot" yili deb e'lon qilindi. Xalqimizga qarata murojaat etar ekan prezidentimiz shu so'zlarni aytdi: "Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida, men 2020-yilga "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyot" yili deb nom berishni taklif etaman" [1].

Shu maqsadni amalga oshirish uchun tabiiyki, birinchi navbatda ta'limni rivolantirish zarurati paydo bo'ladi. Ta'limni rivojlantirishning sinalgan va haqqoniy tizimi esa dunyoda ta'limi rivojlangan davlatlarning maorif tizimini o'rganish va ijobiy jihatlarini hayotga tatbiq etish hisoblanadi.

Finlyandiya maorifi butun dunyoda yuqori obro'ga egadir. BMT ma'lumotlariga ko'ra [2] va PISA tadqiqotlarida [3] Finlyandiya ta'lim indeksi (Education index) dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir. 2012-yildan beri, Finlyandiya ta'lim tizimlarining jahon reytingida yetakchiligi saqlanib qolmoqda, [4] va fin maktab o'quvchilari xalqaro tashkilot IEA ga ko'ra, boshqa mamlakatlar talabalari orasida maktab ko'nikmalarini bo'yicha ilg'or o'rinlarni egallab kelishmoqda [5]. 2016-yildan boshlab Finlyandiya maktablarida "Phenomenon-based learning" joriy etildi. Finlyandiya har bir bola dastlabki boshlang'ich ta'lim olish huquqiga ega, bu odatda bola 6 yoshga kirganda majburiy ta'lim boshlanishidan bir yil oldin boshlanadi. Dastlabki boshlang'ich ta'limni maktabda yoki bolalar bog'chasida, oilaviy bolalar bog'chasida yoki boshqa joylarda olish mumkin. Bu qaror shahar-munitsipalitetlar tomonidan qabul qilinadi. Majburiy ta'limdabohlayetti yoshgato'lganidan boshlanadi va 16-17 yoshgacha davom etadi. Davlat bepul ta'limni kafolatlaydi. Bunga ta'lim, darsliklar, noutbuklar, asosiy ish yuritish materiallari, maktabdagi bepul ovqatlanishlar kiradi. O'quv yili avgust oyida boshlanadi. 3-sinfda ingliz tilini o'rganish boshlanadi, 4 sinfda bola ixtiyoriy chet tilini (fransuz, nemis yoki rus) tanlaydi. 7 sinfda majburiy shved tilini o'rganish boshlanadi.

Fin ta'lim tizimining farq qiluvchi xususiyatlari quyidagilardir:

- Bepul ta'lim
- Har bir bola va o'smir ta'lim olish huquqiga ega va maktabga borishga majbur
- O'quv rejasining yagona milliy asoslari
- Ta'lim faoliyatini tashkillashtirish va boshqarish vazifalarini mahalliy darajaga o'tkazib berish
- O'qituvchilarning malakasi va kompetensiyasiga bo'lgan ishonchning yuqori darajasi
- O'quv jarayonini moslashuvchan ravishda tashkillashtirish imkoniyati
- Butun mamlakat o'rta maktablaridagi ta'lim o'zlashtirish darajasining yuqoriligi

[6]

Finlyandiya yashovchi barcha bolalar va yoshlarga, ularning yashash joyi, jinsi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va madaniy qadriyatlaridan qat'iy nazar ta'lim olishni taklif qiluvchi ta'lim berish sifati, ta'lim sohasining poydevor toshi bo'lib xizmat qiladi. Maorifni boshqarish masalalari hukumat tomonidan munitsipalitetlar darajasida taqsimlangan,



lekin maktablarning o'quv rejaları davlat tomonidan belgilangan asoslar bo'yicha bo'lishi kerak. Bularning barchasi turli hududlarning xususiyatlarini inobatga olgan holda, ham qishloqlarda, ham shaharlarda ta'lim berish sifatining mamlakat bo'yicha yuqori bo'lishiga imkon beradi. O'rta maktablarni bitirayotgan o'quvchilar uchun davlat bitiruv imtihoni o'tkazilmaydi, shuningdek maktablar bo'yicha o'zlashtirish natijalari va baholari ham chop etilmaydi. Maktab va o'quvchilar o'rta maktabni bitirish yakunlariga baho berishning davlat normativ tavsiyalari bo'yicha ish tutadilar. Ta'lim muassasasiga kirish va baholash jarayoni o'z shaffofligi, tenghuquqliligi va abituriyentning qaysi maktabni bitirganligiga bog'liq bo'lmaganligi bilan tavsiflanadi, chunki baholash omillari aniq va batafsil ravishda yozib qoldirilgan va butun mamlakat uchun yagonadir.

Fin maorif tizimida qat'iy ta'lim yo'nalishi bo'lmaganligi kabi ta'lim "tupik"lari ham yo'qdir. O'rta maktabni bitirgan har bir o'quvchi, o'zi istagan holda har qanday darajasi yuqoriroq ta'lim muassasasiga hujjat topshirishi va kirishga harakat qilishi mumkin. Ta'lim olish bepuldir. O'qishga qabul qilish baholar asosida olib boriladi, tanish-bilish, pul yoki ertaroq hujjat topshirish orqali emas.

Fin boshlang'ich o'rta maktabi umumiy ma'lumot beradigan maktablardandir. Xalqaro qiyoslash tadqiqotlari natijalari bo'yicha, 15 yoshli boshlang'ich o'rta maktabi bitiruvchilari ona tili, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha juda yaxshi bilimga egalar. Boshlang'ich o'rta maktabni bitirgandan so'ng ta'lim olishni davom etish mumkin va bu barcha uchun tavsiya qilinadi. O'rta maktab bitiruvchilarining deyarli 90 foizidan ko'prog'i darhol litsey yoki kasb-hunar kollejariga hujjat topshiradilar (2018-yil)[7]. Litsey yoki kasb-hunar kollejida olinadigan ikkinchi bosqich ta'limi, o'quvchini keyinchalik Finlyandiya yoki chet eldagi oliy o'quv yurtiga kirishga tayyorlaydi. O'rta maktabni bitirgandan keyin ta'lim olishni davom ettirmaslikka qaror qilganlar uchun, bepul ta'limning muqobil turlari taklif qilinadi.

Finlyandiyadagi kasb-hunar ta'limi o'zining yuqori sifatliiligi bilan ajralib turadi va hunarga ega bo'lish uchun bepul imkoniyat yaratadi. Kasb-hunar ta'lim dasturi ham nazariy, ham amaliy o'qitishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ta'lim muassasasini bitirishdan keyin o'z mehnat faoliyatini boshlashi uchun kerak bo'ladigan ijtimoiy ko'nikmalarni ham beradi. Kasb-hunar ta'lim muassasalari ham litseylar kabi mashhurlar. Kasb-hunar kollejarining ko'pchilik bitiruvchilari darhol mehnat faoliyatlarini boshlaydilar. Bitiruvchilarning bir qismi ta'lim olishni davom ettirishga qaror qiladilar va oliy toifadagi kasb-hunar ta'lim muassasalari yoki universitetlarga hujjat topshiradilar.

Umumiy ta'lim xususiyatlariga ega bo'lgan litsey (to'liq o'rta) ta'limini boshlang'ich o'rta maktab bitiruvchilarining taxminan yarmi tanlaydi va litsey tamomlagandan so'ng davlat imtihonlarini topshiradilar. Litseydagi ta'lim bepuldir. O'qitish o'quvchining o'zlashtirish qobiliyatlariga asoslangan holda 2 yildan 4 yilgacha davom etadi. Milliy umuta'lim o'quv rejasi majburiy predmetlar shakliga ega. Bundan tashqari, o'quvchi o'z xohishi bo'yicha bir qator predmetlarni litsey o'qitish kursini bajarish uchun tanlaydi.

Ikkinchi bosqich ta'limi diplomini olgandan so'ng, o'quvchi oliy o'quv yuridatolim olishni davom ettirishi va universitet yoki oliy kasb-hunar ta'lim muassasasiga hujjat topshirishi mumkin. Abituriyent universitet yoki oliy kasb-hunar ta'lim muassasasiga kirish uchun kirish imtihonini topshirishi kerak. Kirish imtihonidan muvaffaqiyatli ravishda o'tgan talaba, oliy ta'limning ikki bosqichli kursini olish huquqiga va bakalavr unvoniga ega bo'lishi, yoki yanada uzoqroqqa ketib, qo'shimcha kirish imtihonini talab qilmaydigan magistr unvoniga ham ega bo'lishi mumkin. Ta'lim olish va bitiruv imtihonlari bepuldir. Amalga oshirilayotgan talabalar, o'qituvchilar va tadqiqotchi-olimlar almashinuvi xalqaro bog'lanishlarni ta'minlaydi. Ta'lim olishning bepulligi, fin oliy ta'lim



muassasalarining boshqa davlatlarning talabalari uchun jozibador bo'lishining muhim omilidir. Ta'lim bir vaqtning o'zida ham tekin, ham bepul bo'lishi mumkinligi, xorijiy mutaxassislarning ancha hayron bo'lishlariga olib keladi.

Fin ta'lim tizimining asosiga ham iqtidorli, ham harakatchan, ham boshqalarning ko'magiga muhtoj bo'lgan barcha o'quvchilarga istisno qilmagan holda, ta'lim darajasini yuksaltirishning bepul muqobil turlarini taklif qilish g'oyasi kiritilgan. Ta'lim olish imkoniyatlari bo'yicha ma'lumot berish maktab kuratori orqali amalga oshiriladi. Talaba kreditlari tizimi o'qish davrida iqtisodiy yordam berish uchun mo'ljallangan. Finlyandiyada ta'lim olishning bepulligi, ta'lim tizimining tenghuquqli va adolatli ekanligini ko'rsatmoqda. Fin ta'limining muvaffaqiyatlarning ildizi XX asr 2-yarmiga borib taqaladi.

1968 yilda parlament tomonidan qonun qabul qilindi va ushbu qonunga binoan har bir bola yoki o'smir, o'z yashash joyi va ota-onasining moliyaviy ahvolidan qat'iy nazar, to'qqiz yillik sifatli tamal ta'lim olish huquqiga ega edi. Ta'lim olish huquqi insonning asosiy huquqlaridan biri bo'lganligi sababli, imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga ta'lim berish va ularni parvarish qilish ham yangi qonunga binoan umumiy ta'limning tarkibiga kirdi. Boshlang'ich o'rta maktab barcha yoshdagi guruhlar uchun chindan ham umumiy maktab bo'lib qoldi.

Finlyandiya o'z mustaqilligining yuz yilligini nishonlayotgan yilda (2018), boshlang'ich o'rta maktab yarim asrdan beri faoliyat yuritmoqda. Xalq maktablari va pullik o'rta ta'limdan chiqib ketishda qarshiliklar kuzatildi. Islohotlarga qarshi chiqqanlar, yangi tizim ta'lim darajasining pasayib ketishiga olib kelishi va iqtidorli bolalarga o'zlarini ko'rsatishga imkon berolmasligini ta'kidladilar. Biroq, o'tgan yarim asr Fin ta'limidagi qaror to'g'ri bo'lganligini ko'rsatdi. O'rta maktablar o'quvchilari PISA (Xalqaro talabalar ta'lim yutuqlari tadqiqotlari) xalqaro tadqiqotlarida qoyilmaqom natijalarga erishdilar va bizning ta'lim muassasalarimiz keng xalqaro e'tibor obyektlaridir.

Fin ta'limining muvaffaqiyatining siri nimada? Barchasining asosida boshlang'ich o'rta maktabning yagona tuzilmasi va unga birlashtirilgan holda, o'quvchilarning farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan turli toifadagi xizmatlar yotibti. Boshlang'ich o'rta maktab - bu ma'lum ma'nodagi fin jamiyatining mitti holatidir. Turli xil oilalardan kelgan va turli darajadagi iqtidorga ega bo'lgan o'quvchilar bir guruhda o'qimoqdalar. Turli toifadagi ko'maklashuvchi xizmatlar, o'quv qo'llanmalari va issiq ovqatni o'z ichiga olgan ta'lim jarayoni o'quvchilar uchun tamomila bepuldir.

Ikkinchi muhim omil - bu ta'lim vazifalari bilan bir qatorda, bolalarning ijtimoiy, axloqiy va jismoniy rivojlanishi bo'yicha farqlarini ham e'tiborga oluvchi o'quv rejasidir. Tabiiyki, oliy ma'lumotga ega va o'z ishiga sodiq bo'lgan malakali o'qituvchi markaziy omil bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchilar o'z ishlarida keng miqyosdagi pedagogik muxtoriyatga va ham o'z o'quvchilarining ota-onalari, ham boshqaruvning ishonchiga egalar. Bu Finlyandiyadagi maktablarga davlat komissiyalarining tekshiruvlar bilan kelmasligini va faoliyat ustidagi ta'lim organlari nazoratining ham yo'qligini anglatadi. Kuchli kasaba uyushmasi tashkiloti ham o'qituvchilarga ko'maklashadi.

Shuningdek, fin siyosatining ta'lim sohasidagi barqarorligi, hamda an'ana va urf odatlarni amaliy ravishda birlashtirish qobiliyati muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Fin ta'limidagi islohotlar inqilobiy emas, balki evolyutsion jarayonlar orqali amalga oshiriladi. Bu holat ham siyosiy qarorlarni qabul qilish, ham pedagogik o'zgartirishlarga tegishlidir. Va nihoyat, boshlang'ich o'rta maktabning faoliyati va rivojlanishi bo'yicha javobgarlik, oxir-oqibatda munitsipalitetlar zimmasida ekanligini belgilamaslik mumkin emas. Qarorlar avvalo, fuqarolar tomonidan qabul qilinadi. Boshlang'ich o'rta maktab fin demokratiyasining muhim bo'lagidir, umumiylik omilining amaliyotda amalga oshirish qismidir[8].



1973-1991 yillarda Finlyandiya Milliy maktablar boshqaruvi raisi, professor Erkki Axo shunday fikrlarni bildiradi. "Globallashuv jarayoni va raqamli texnologiyalar mehnat bozoridagi ahvolni juda ham o'zgartirib yubordi, ijtimoiy va hududiy tengsizlik muammosi o'sish bilan xavf solmoqda, migratsiya an'anaviy madaniy tuzilmalarni zaiflashtirmoqda va yer sayyorasining ekologik yaxlitligi bo'yicha bo'lgan havotir ham mamlakat, ham yakka shaxs darajasida qaror qilish vaqtida kuchayib bormoqda. Va uncha katta bo'lmagan millatning kuchi uning o'qimishli ekanligidadir. Shuning uchun ham bizning tirik qolish strategiyamiz ta'lim manbalari va ilimiy-tadqiqot ishlarimizga asoslangan holda ishlab chiqilmoqda.

Bizning boshlang'ich o'rta maktabimiz qanday qilib ushbu qarshilikka javob berishi mumkin? Mantiqqa ziddek tuyulsa ham, lekin biz keskin larzalar markazida bo'lgan holatimizda, yuqorida ko'rsatib o'tilgan va ko'pgina inqiroz holatlarida sinalgan kuchli tomonlarimizdan qaytmaymiz. Ta'lim sohasidagi siyosatimizning maqsadi - ta'lim olish tenghuquqligini ta'minlashdan iboratdir. Va bu savdolashish mavzusi emasdir. Kuchli xislatlarni aniqlash va rivojlantirishga yanada ko'proq tayangan maktab madaniyatini shakllantirish, tarbiyaviy va ta'lim ishlaridagi boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qiladi. Har bir o'quvchining o'z kuchli xislatlarini aniqlash va rivojlantirish huquqi bordir"[9].

2012-yilda o'quv kunini uzaytirish va o'qitiladigan fanlarni qayta tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi[10] [11]. Finlyandiya umumta'lim maktablarini farqlash tendensiyasi bilan bog'liq holda, ta'lim vaziri Yukka Gustafsson maktab ta'limining umumiy pasayishidan tashvishlandi. Shunga qaramay, 2013-yilda Garvard universiteti professori Toni Vagner Finlyandiya maktab ta'lim tizimini maqtadi: " Maktablarni o'quvchilar innovatsiyalarga tayyor bo'lgan holda bitiradilar" [12].

Shu tariqa, har bir sinfda turli xildagi madaniyatlarga mansub bo'lgan iste'dodlarning turfa xilligi shakllanadi va ushbu holat, o'z navbatida yakka shaxs darajasi va sinf darajasidagi ishonchni shakllantirishga ko'maklashadi. Ta'lim - bu kelajakka ko'prikdir va boshlang'ich o'rta maktab ushbu ko'prikn ko'tarib turuvchi ustundir.

#### **Иқтибослар / Сноски /References:**

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi.2020.-25 yanvar 19-son.
2. Human development indices
3. Рабочая группа предлагает выделить специальные финансы на обучение русскому языку как иностранному. // Служба новостей Yle (2012-2-24). Дата обращения 24 февраля 2012.
4. Финляндия сохраняет лидерство в мировом рейтинге системы образования. // Yle News Service (27 ноября 2012 г.). Дата лечения: 28 ноября 2012 г.
5. Финские школьники занимают по школьным навыкам передовые места среди стран мира а по мотивации последние. // Служба новостей Yle (11 декабря 2012). Дата обращения 13 декабря 2012.
6. Ilkka Taipale. Finlyandiyaning 100 ijtimoiy innovatsiyasi Finlyandiya qanday qilib Finlyandiya bo'ldi: siyosiy, ijtimoiy maishiy innovatsiyalar. Toshkent.: "Sharq", 2019.
7. Human development indices
8. Anneli Niikko, "Finnish Daycare: Caring, Education and Instruction", in Nordic Childhoods and Early Education: Philosophy, Research, Policy and Practice in Denmark, Finland, Iceland, Norway, and Sweden, Series: International Perspectives on Educational Policy, Research (Information Age Publishing Inc., 2006), 141



9. Ilkka Taupale. Finlyandiyaning 100 ijtimoiy innovatsiyasi Finlyandiya qanday qilib Finlyandiya bo'ldi: siyosiy, ijtimoiy maishiy innovatsiyalar. Toshkent.: "Sharq", 2019.
10. Будущие учителя готовы отказаться от преподавания религии в финских школах. // Служба новостей Yle (2012-6-25). Дата обращения 4 июля 2012.
11. Будущее общеобразовательной школы разделяет мнения партий. // Служба новостей Yle (2012-9-14). Дата обращения 14 сентября 2012.
12. В New York Times хвалят финскую систему образования. // Служба новостей Yle (2013-3-31). Дата обращения 2 апреля 2013.